



**Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab
qo'yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar**

Ro'ziyeva Marjona

Toshkent davlat yuridik universitet huzuridagi

M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey

1-bosqich 11-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar tahlil qilinadi. Huquqiy normalarga zid bo'lgan bunday jinoyatlar insonning asosiy erkinliklari, jumladan, so'z erkinligi, shaxsiy daxlsizlik va qonun oldidagi tenglik huquqining buzulishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Shunga qaramay, fuqarolarning ushbu huquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar jamiyatning barqarorligiga, adolat tamoyillariga va shaxs erkinligiga putur yetkazadi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga qarshi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida alohida moddalarda belgilangan bo'lib, ularni oldini olish, aniqlash va javobgarlikka tortish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek, maqolada ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qilish organlar va davlatning roli ham yoritiladi. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishning muhimligi va bu jinoyatlarga nisbatan jazo choralar alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Fuqarolarning huquqlari, konstitutsiya va qonunchilik, huquqiy erkinliklar, jinoyatlar, huquqbuzarliklar, jinoyat tarkibi, davlat organlari, huquqiy himoya, xalqaro tajriba, jinoyat huquqi.



Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar tarkibiga mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan huquqlarni buzish kabi jinoyatlar kiradi. Bular:

Fuqarolarning teng huquqliligini buzish;

Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish;

Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish;

Xat – yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar, yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish;

Vijdon erkinligini buzish;

Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish;

Saylov huquqining yoki ishonchli vakili vakolatlarning amalga oshirishiga to'sqinlik qilish;

Mualiflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish;

Mazkur jinoyatlarning obykti fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklaridir.

Fuqarolarning teng huquqliligini buzish jinoyat jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyidan, kelib chiqishidan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlarini buzish yoki cheklash yoxud fuqarplarga bevosita afzalliklar berishda ifodalanadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish

Bu jinoyat shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatishda ifodalaniladi.

Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Mazkur modda fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan ariza berish, davlat hokimiyati organlari, korxonalari, muassasalariva jamoat



hayotining boshqa sohalari faoliyatini erkin tanqid qilish huquqini jinoyat huquqi tomonidan himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Jinoyat fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunni buzishga qaratilgan har xil harakatlar bo'lib, u fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan muhofaza etadigan huquqlariga jiddiy zarar yetkazishda ifodalaniladi.

Vijdon erkinligini buzish

Jinoyat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarning o'tkazilishiga to'sqinlik qilishda ifodalaniladi. Vijdon erkinligi diniy faoliyatning faqat qonun doirasida amalga oshirilishidir. Voyaga yetmagan shaxslarni diniy tashkilotlarga jalb etish, diniy tashkilot faoliyatida ishtirok etishga ko'ndirishga qaratilgan qilmish sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan jinoyat, deb e'tirof etiladi.

Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Fuqarolarning ovoz berish huquqi, saylovlar yoki referendumlarni tashkil etish, o'tkazishning belgilangan tartibiga qarshi harakat yoki harakatsizlikdir. Jinoyatning saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxs, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, tashabbuskor guruhlar, saylov kamissiyalarining a'zolari tomonidan sodir etilishi mumkin.

Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarning amalga oshirishiga to'sqinlik qilish

Jinoyat obyekti – insonning saylash yoki saylanish, saylovoldi tashviqotini olib borish, referendumni o'tkazishda ishtirok etish, saylovoldi tashviqot olib borish, nomzod shaxs ishonchli vakillarining o'z vakolatlarini amalga oshirish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan fuqarolarning o'z saylash huquqlarini erkin amalga shirishlariga to'sqinlik qilishda yoki deputatlikka yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari o'z vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilishda ifodalaniladi.



Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish

Fuqaroning intellektual mulkini himoya qilishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi, xususan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzilishidir.

Jinoyat mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilinguniga qadar muallifning rozilgisiz oshkor qilinishida ifodalaniladi.

Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish

Jinoyat yashovchilarning erkiga qarshi zo'rlik ishlatib, g'ayri qonuniy ravishda turar joyga bostirib kirishda ifodalaniladi.

Xat – yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish

Jinoyat shaxslarning pochta – telegraf xabarlari yoki telefonda so'zlashuvning azmuni va hokazolar bilan g'ayriqonuniy tanishuvida yoxud fuqarolarning xatlari, telegrammalari, telefaks orqali, electron pochta va h.k. orqali xabar qilinayotgan ma'lumotlarni shu axbarotlar egasining rozilgisiz oshkor etilishida ifodalaniladi.

XULOSA:

Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar har qanday demokratik jamiyatning asosiy tamoyillariga tajovuz hisoblanadi. Bu turdagi jinoyatlarning oldini olish va ularni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish huquqiy davlatning asosi vaziyatlaridan biridir. Shu sababli, qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan choralar mustahkamlanishi jamiyat barqarorligi va adolatning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bunday jinoyatlar nafaqat shaxs manfaatlariga zarar yetkazadi, balki davlatning huquqiy asoslarini zaiflashtiradi. Huquqiy mas'uliyat va adolat prinsplari asosida bu jinoyatlarning oldini olish va tegishli choralarni ko'rish fuqarolarning



davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquqlarga qarshi qilingan har qanday tajovuz jiddiy huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan profilaktik chora – tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Davlat va huquq asoslari: O'rta ta'lim muassasalarining o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi muassasalari uchun darslik /N.Ismatova , O.Krimova.